

IQTISODIYLASHAYOTGAN ZARAFSHON MINTAQASI: 1991–2025 YILLARDA TARIXIY JARAYON, TARKIBIY O‘ZGARISHLAR VA TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

Sayfiddinov Doston Rustam o‘g‘li

Osiyo xalqaro universiteti tayanch doktoranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19372684>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Zarafshon vohasining 1991–2025-yillardagi iqtisodiy o‘zgarishlar jarayoni tarixiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Unda hududning bozor iqtisodiyotiga moslashuvi, sanoat, qishloq xo‘jaligi, turizm va logistika sohalaridagi o‘zgarishlar hamda Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlarining tashqi iqtisodiy aloqalardagi ishtiroki statistik va arxiv manbalari asosida yoritiladi. Shuningdek, 2017-yildan keyingi islohotlar natijasida mintaqada iqtisodiyotida yuz bergan o‘zgarishlar qisqacha tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Zarafshon, Samarqand, Buxoro, Navoiy, iqtisodiy o‘zgarishlar, tarkibiy o‘zgarishlar, erkin iqtisodiy zona, sanoat, turizm, tashqi savdo.

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ РЕГИОНА ЗАРАФШОН: ИСТОРИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС, СТРУКТУРНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ И ВНЕШНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ СВЯЗИ В ПЕРИОД 1991–2025 ГГ

Аннотация. В статье анализируется процесс экономизации Зарафшанского региона в 1991–2025 гг. на основе исторического подхода. Рассматриваются адаптация региона к рыночной экономике, изменения в промышленности, сельском хозяйстве, туризме и логистике, а также участие Самаркандской, Бухарской и Навоийской областей во внешнеэкономических связях на основе статистических и архивных источников. Кроме того, кратко анализируются изменения в региональной экономике в условиях реформ после 2017 года.

Ключевые слова: Зарафшан, Самарканд, Бухара, Навои, экономизация, структурные изменения, свободная экономическая зона, промышленность, туризм, внешняя торговля.

THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF ZARAFSHON REGION: HISTORICAL PROCESS, STRUCTURAL CHANGES AND EXTERNAL ECONOMIC RELATIONS IN 1991–2025

Abstract. This article analyzes the process of economic transformation of the Zarafshan region during 1991–2025 based on a historical approach. It examines the region’s adaptation to the market economy, changes in industry, agriculture, tourism, and logistics, as well as the participation of the Samarkand, Bukhara, and Navoi regions in foreign economic relations using statistical and archival sources. In addition, the study briefly evaluates the economic changes that occurred in the region in the context of reforms implemented after 2017.

Keywords: Zarafshan, Samarkand, Bukhara, Navoi, economic transformation, structural changes, free economic zone, industry, tourism, foreign trade.

Kirish. Zarafshon mintaqasi tarixan sug‘orma dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-tranzit faoliyati tutashgan hudud sifatida shakllangan. Mustaqillikdan keyingi davrda (1991 yildan boshlab) iqtisodiy tizimning bozor mexanizmlariga o‘tishi, resurslardan foydalanish modeli va tashqi iqtisodiy aloqalarning kengayishi Zarafshon vohasini “iqtisodiy o‘zgarishlar makoni” sifatida qayta ta’riflashga asos bo‘ldi.

Shu bois mintaqada yuz bergan iqtisodiy o'zgarishlarni tarixiy bosqichlar kesimida ko'rib chiqish, ularning hududiy rivojlanishga ta'sirini aniqlash va tashqi iqtisodiy aloqalar bilan bog'liq jarayonlarni tahlil qilish ilmiy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Muhokama va natijalar. 1991–1999 yillar Zarafshon vohasi uchun bozor iqtisodiyotiga moslashuv va dastlabki tarkibiy siljishlar davri bo'ldi. Mustaqillikning dastlabki yillari makroiqtisodiy beqarorlik, ta'minot zanjirlarining uzilishi va davlat buyurtmalari tizimining qisqarishi bilan xarakterlanadi. Zarafshon vohasida bu holat, bir tomondan, agrar sektorning qayta tashkil etilishi, ikkinchi tomondan esa sanoat korxonalarining yangi bozor sharoitiga moslashuvi orqali namoyon bo'ldi. Hududiy arxiv materiallarida 1992–1993 yillarda ishlab chiqarish hajmlari, xalq iste'mol tovarlari va ijtimoiy soha xarajatlari bo'yicha alohida bandlar qayd etilishi mintaqada iqtisodiy siyosatning “barqarorlashtirish” maqsadiga yo'naltirilganini ko'rsatadi.¹

2000–2016 yillar Zarafshon vohasida sanoatlashtirish jarayonining jadallashuvi, resurs bazasiga tayanish hamda hududiy ixtisoslashuvning mustahkamlanishi bilan xarakterlanadi.

Ushbu bosqichda iqtisodiy o'sish omillari sifatida qayta ishlash sanoati, qurilish va xizmatlar sohasining kengayishi muhim rol o'ynadi. Navoiy viloyatida tog'-kon va metallurgiya majmuasi barqaror eksport tushumini ta'minlovchi tayanch tarmoqqa aylandi. Sanoatning yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushining yuqoriligi (xususan, 2023-yil yanvar–sentabr yakunlari bo'yicha sanoat qo'shilgan qiymati ko'rsatkichlari) mintaqada resursga tayanadigan rivojlanish modelining saqlanib qolganini ko'rsatadi.² Shu bilan birga, hududiy ixtisoslashuv doirasida Samarqand va Buxoro viloyatlarida turizm va servis xizmatlari, qishloq xo'jaligi hamda an'anaviy hunarmandchilik yo'nalishlari iqtisodiy o'sishning muhim segmentlari sifatida shakllanib bordi.

2008-yildan boshlab Zarafshon mintaqasida investitsion muhitning sifat jihatidan yangi bosqichi boshlandi. Mazkur davr jahon iqtisodiyotida yuz bergan 2008-yilgi jahon moliyaviy inqirozi bilan hamohang ravishda shakllandi. Inqiroz natijasida global talabning qisqarishi, xomashyo narxlarining pasayishi va investitsiya oqimlarining sekinlashuvi kuzatilgan bo'lsa-da, O'zbekiston iqtisodiyotida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan kompleks choralar amalga oshirildi. Xususan, inqirozga qarshi dasturlar doirasida real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlash, bank-moliya tizimini mustahkamlash, infratuzilma loyihalarini jadallashtirish hamda eksportyor korxonalariga imtiyozli kreditlar ajratish orqali iqtisodiy faollikni rag'batlantirish choralari ko'rildi. Ushbu siyosat natijasida mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'atlari saqlab qolindi va hududlar kesimida investitsion faollikning keskin pasayib ketishiga yo'l qo'yilmadi.³

2008-yildan boshlab Zarafshon mintaqasida investitsion muhitning sifat jihatidan yangi bosqichi boshlandi. Hudud iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish jarayonida “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasining tashkil etilishi muhim institutsional qadam bo'ldi. 2008-yil 2-dekabrda PF-4059-son Farmon asosida Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona barpo etilib, uning faoliyat muddati 30 yil etib belgilandi.⁴

¹ Buxoro viloyati davlat arxivi. 1459-fond, 1-ro'yxat, 6-yig'ma jild, 5-6-varaq.

² O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi: “Navoiy viloyatining yalpi hududiy mahsuloti tarkibida sanoatning ulushi” 2023-yil 26-dekabr.

³ Raximov A. “Hududiy iqtisodiyot va mintaqaviy rivojlanish asoslari.” – T.: Iqtisodiyot, 2018.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 2-dekabrda PF-4059-son Farmoni: “Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida”

Mazkur mexanizm ishlab chiqarish kooperatsiyasini kengaytirish, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega hamda eksportga yo‘naltirilgan loyihalarni jalb etish, shuningdek, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish orqali mintaqaning tashqi iqtisodiy integratsiyasini kuchaytirishga xizmat qildi.

Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 12-martdagi “2009–2014 yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo‘yicha eng muhim loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni doirasida Buxoro viloyatida neft-gaz sanoati hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish yo‘nalishlari izchil rivojlantirildi.

Xususan, neft-gaz konlarini o‘zlashtirish va qayta ishlash korxonalarini modernizatsiya qilish ishlari amalga oshirildi. Shu bilan birga, yengil va oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi kuzatilib, yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratildi hamda eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.⁵

2017–2025 yillar Zarafshon mintaqasida ochiqlik siyosatining kuchayishi, tarmoqlar diversifikatsiyasi va tashqi iqtisodiy aloqalarning jadallashuvi bilan xarakterlanadi. 2017-yildan keyingi islohotlar doirasida valyuta bozorini liberallashtirish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish hamda investitsiya muhitini yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar tashqi iqtisodiy faoliyatga bevosita ta‘sir ko‘rsatdi. Natijada hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi va tashqi savdo hajmlarining barqaror o‘ssishi kuzatildi. Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2025-yil yanvar–oktabr oylarida respublikada 865,8 trln so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan bo‘lib, hududlar kesimida Navoiy viloyatida 155 078,7 mlrd so‘m, Samarqand viloyatida 45 806,6 mlrd so‘m hamda Buxoro viloyatida 39 413,5 mlrd so‘mlik ko‘rsatkichlar qayd etilgan.⁶ Ushbu raqamlar mintaqaning sanoat salohiyati va tashqi iqtisodiy integratsiyasi izchil kengayib borayotganini ko‘rsatadi.

Tanlangan ko‘rsatkichlar (mintaqa bo‘yicha)

Quyidagi jadval 2024–2025 yillarda (rasmiiy press-relizlar asosida) mintaqqa iqtisodiy faolligini tavsiflovchi ayrim indikatorlarni jamlaydi.

Ko‘rsatkich	Samarqand	Buxoro	Navoiy
Sanoat ishlab chiqarishi, 2025 yanvar-oktabr (mlrd so‘m)	45 806,6	39 413,5	155 078,7
Tashqi savdo aylanmasi, 2024 yanvar-mart (mln AQSH doll.)	593,7	342,9	292,0
YAHM, 2025 I yarim yillik (mlrd so‘m)	—	—	67 892,1
Aholi jon boshiga YAHM, 2023 yakuni (ming so‘m)	—	—	76 913,1

Navoiy mintaqasining tashqi iqtisodiy aloqalardagi pozitsiyasini belgilovchi asosiy omillardan biri – tog‘-kon sanoati va qimmatbaho metallar eksportidir. NMMC (Navoi Mining and Metallurgical Company) 2023-yil yakunlariga ko‘ra oltin ishlab chiqarish hajmini 2 936 ming troy unsiya sifatida qayd etadi (kompaniya barqarorlik hisobotida keltirilgan).

⁵ Ibrohimov I. Sahro bag‘ridagi mo‘jiza. // Xalq so‘zi. 2011-yil 12-may, -B. 1.;

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi: “O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarishi” press-relizi. 2025-yil 21-noyabr.

Ushbu mahsulotning markazlashgan xarid va eksport mexanizmlari hudud eksport tushumlarining salmoqli qismini shakllantiradi.⁷

Turizm va xizmatlar sektori: Samarqand va Buxoro tajribasi. Zarafshon vohasida iqtisodiy o'sishning muhim yo'nalishi – turizm xizmatlari va u bilan bog'liq servis tarmoqlarining o'sishidir. Buxoro viloyati statistika boshqarmasi 2023-yil turizm bo'yicha press-relizida turistik firma va tashkilotlar faoliyati, qabul qilinganlar soni hamda xorijiy bozorlar bo'yicha ko'rsatkichlarni keltiradi.⁸ Samarqand bo'yicha hududiy statistik materiallar va rasmiy brifinglarda 2023-yilda xorijiy sayyohlar oqimi hamda joylashtirish infratuzilmasi kengaygani qayd etiladi.^{9,10} Bu jarayonlar iqtisodiyotning xizmatlar sektorida bandlikni oshirish, kichik biznesni rag'batlantirish hamda hudud brendi orqali tashqi aloqalarni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tashqi savdo geografiyasi va hududlararo farqlar. Tashqi savdo aylanmasi hududlarning xalqaro iqtisodiy aloqalarga integratsiyalashuv darajasini ko'rsatuvchi muhim indikator hisoblanadi. Milliy statistika qo'mitasining 2024-yil yanvar-mart bo'yicha tashqi savdo press-relizida hududlar kesimida tashqi savdo aylanmasi keltirilgan bo'lib, Samarqand (593,7 mln AQSH doll.), Buxoro (342,9 mln) va Navoiy (292,0 mln) ko'rsatkichlari qayd etilgan.¹¹ Ushbu farqlar tarmoqlar tarkibi, logistika imkoniyatlari va eksport ixtisoslashuvi bilan izohlanadi.

2026-yil: Zarafshon mintaqasida sanoat va investitsion faollikning yangi bosqichi. 2026-yilning yanvar-fevral oylarida Buxoro viloyati hududida bir qator yirik sanoat va investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi Zarafshon mintaqasida iqtisodiy faollikning yangi bosqichga o'tayotganini ko'rsatadi. Mazkur loyihalar energetika, neft-kimyoy, qurilish materiallari ishlab chiqarish hamda chiqindilarni qayta ishlash kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

Xususan, Kogon tumanida qiymati 165 mln AQSH dollari bo'lgan maishiy chiqindilarni qayta ishlab, elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi zamonaviy majmua qurilishi boshlandi. Loyiha yiliga 547,5 ming tonna chiqindini qayta ishlash va 400 mln kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lishi rejalashtirilgan. Ushbu tashabbus hududda "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish va energiya manbalarini diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, Qorovulbozor tumanida 60 mln AQSH dollarlik "Petrochem Bukhara" neft-kimyoy zavodi qurilishi davom etmoqda. Korxonaya yiliga 150 ming tonna mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lib, neft-kimyoy chiqindilarini qayta ishlashga ixtisoslashgan. Bu loyiha qayta ishlash sanoatini kengaytirish va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan.

Buxoro tumani "To'dakol" massivida 333 mlrd so'mlik neft-kimyoy klasteri barpo etilmoqda. Loyiha doirasida bir nechta kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etilishi, yiliga 100 ming tonnagacha mahsulot ishlab chiqarish hamda 100 dan ortiq yangi ish o'rni yaratish rejalashtirilgan. Klaster modeli hududda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va kichik biznesni jalb etish imkonini beradi. Kogon tumanidagi kichik sanoat hududida 15 mln AQSH dollarlik qurilish materiallari ishlab chiqarish loyihasi hamda 2,4 mln AQSH dollarlik gidroizolyatsiya polietilen mahsulotlari ishlab chiqarish korxonasi ishga tushirildi.

⁷ Navoi Mining and Metallurgical Company (NMMC). Sustainability Report 2023 (PDF, 2024).

⁸ Buxoro viloyati statistika boshqarmasi. "2023-yilda Buxoro viloyatida turizm". press-reliz 2023.

⁹ Samarqand viloyati statistika boshqarmasi. "TURIZM 2023". press-reliz, 2023.

¹⁰ Samarqand viloyati hokimligi. Brifing: "Turizm xizmatlarini kengaytirish" (09.02.2024) – 2023 yil natijalari.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi: "O'zbekiston respublikasi tashqi savdo aylanmasi" press-relizi, 2024-yil yanvar-mart.

Ushbu loyihalar import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish va mahalliy bandlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, 2026 yil boshidagi investitsiya loyihalari Zarafshon mintaqasida sanoatning qayta ishlash yo'nalishi, energetika va qurilish materiallari ishlab chiqarish sohalarida diversifikatsiya jarayoni kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Agar 1990-yillar moslashuv bosqichi, 2000–2016 yillar sanoatni tiklash va mustahkamlash davri, 2017–2025 yillar esa tashqi iqtisodiy ochiqlik va modernizatsiya bosqichi bo'lgan bo'lsa, 2026 yil boshidagi jarayonlar hududda yuqori qo'shilgan qiymatli ishlab chiqarish va klasterlashuv modelining shakllanayotganini anglatadi.

Xulosa. 1991–2025 yillarda Zarafshon mintaqasining iqtisodiylashuvi bir necha bosqichda kechdi:

- 1) 1990-yillar – moslashuv va barqarorlashtirish;
- 2) 2000–2016 yillar – sanoatlashtirish va resursga tayanadigan ixtisoslashuvning mustahkamlanishi;
- 3) 2017–2025 yillar – ochiqlik siyosati, institutsional islohotlar va tashqi iqtisodiy aloqalarning jadallashuvi.

Navoiyda sanoat va eksport (tog'-kon) drayver bo'lib qolayotgan bo'lsa, Samarqand va Buxoroda turizm va xizmatlar sektori iqtisodiy diversifikatsiyani tezlashtirdi. Dissertatsiya doirasida keyingi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalishlar: hududiy eksport tarkibini tarmoqlar bo'yicha rekonstruksiya qilish, EIZ va logistika infratuzilmasining xalqaro kooperatsiyaga ta'sirini baholash, hamda arxiv hujjatlari asosida 1990-yillar boshidagi institutsional o'zgarishlarni mikro-darajada tahlil qilishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. "O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishi" press-relizi. 2025-yil 21-noyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. "O'zbekiston respublikasi tashqi savdo aylanmasi" press-relizi. 2024-yil yanvar–mart.
3. Raximov A. "Hududiy iqtisodiyot va mintaqaviy rivojlanish asoslari." – T.: Iqtisodiyot, 2018.
4. Ibrohimov I. Sahro bag'ridagi mo'jiza. // Xalq so'zi. 2011-yil 12-may.
5. Navoiy viloyati statistika boshqarmasi (Navstat). YAHM bo'yicha press-relizlar (2024–2025).
6. Buxoro viloyati statistika boshqarmasi. Turizm bo'yicha press-reliz (2023).
7. Samarqand viloyati statistika boshqarmasi. Turizm bo'yicha press-reliz (2023).
8. Navoi Mining and Metallurgical Company (NMMC). Sustainability Report 2023 (PDF, 2024).
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 2-dekabrda PF-4059-son Farmoni (Lex.uz).
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar to'plami. – T.: 2023–2025.
11. Internet manbalari.